

INGLIZ TILIDA MULOQOT QILADIGAN DAVLATLARDA OILAVIY AN'ANALAR

Navoiy Innovatsiyalar universiteti 1-kurs talabasi

Asadova Diyora Shuhrat qizi

Ilmiy rahbar: Xalilova M.I

Navoiy innovatsiyalar universiteti, v.b. dotsenti

Anatatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilida gaplashadigan asosiy davlatlar - Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Kanada va Yangi

Zellandiyaning oilaviy qadriyatlari, madaniy an'analari va tarbiya tizimlari chuqur tahlil qilinadi. Har bir davlatning madaniy me'rosi, bayram an'analari , bolalar tarbiyasiga yondashuvi va ta'lim tizimi o'rganiladi. Tadqiqot davlat statistika ma'lumotlari va madaniy tadqiqot markazi materiallariga asoslanadi. Maqola oilaviy qadriyatlarning jamiyat rivojida tutgan o'rnini , turli madaniyatlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashga qaratilgan . Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, barcha ingliz tilida gaplashadigan davlatlar o'ziga xos madaniy xususiyatlarga ega bo'lsa-da , ularni birlashtiruvchi umumiy qadriyatlar ham mavjud.

Kalit so'zlar: *oilaviy qadriyatlar, madaniy me'ros, bolalar tarbiyasi, ta'lim tizimi, bayram an'analari, ingliz tilida so'zlashadigon davlatlar*

Abstract: This article examines the family values , cultural traditions , and education system of the main English -speaking countries , namely the United States of America , Great Britain , Australia , Canada and New Zealand. The family values, cultural norms, and educational approaches of each country are analyzed in depth. The study is based on statistical data, scientific sources, and cultural research materials. The article focuses on the role of family values in the development of society and aims to identify similarities and differences among these cultures. The research results show that although all English -speaking countries share common values , each country also possesses its own unique cultural characteristics.

Key words: family values, cultural heritage, children's upbringing, education system, holidays and traditions, English-speaking countries

Kirish: Oilaviy qadriyatlar har qanday jamiyatning poydevori hisoblanadi. Ular avlodlar o'rtasidagi munosabatlarni shakllantiradi, madaniy identifikatsiyani mustahkamlaydi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. XXI asrda globallashuv jarayonlari kuchaygan sharoitda turli madaniyatlarning oilaviy qadriyatlarini o'rganish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ingliz tilida muloqot qiladigan davlatlar Amerika Qo'shma Shtatlari , Buyuk Britaniya , Avstraliya , Kanada va Yangi Zelandiya - butun dunyo bo'ylab tarqalgan bo'lib , ularning umumiy tili bir xil bo'lsa-da , madaniy an'analar , oilaviy qadriyatlari va tarbiya uslublari sezilarli darajada farq qiladi. Bu farqlar tarixiy jarayonlar , geografik joylashuv , mahalliy aholining ta'siri va immigratsiya jarayonlari bilan bog'liq .Ushbu maqolada biz har bir davlatning madaniy xususiyatlarini , oilaviy qadriyatlarini , bolalar tarbiyasiga yondashuvini , ta'lim tizimini va bayram an'alarini batafsil ko'rib chiqamiz. Bu tahlil madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, turli davlatlarning oilaviy tizimlarini tushunish va pedagogik tarjiba almashish uchun muhim asos yaratadi.

Amerikaliklar uchun oila muqaddas hisoblanadi. AQSHda erkaklar ham , ayollar ham juda oilaparvar hisoblanadi. AQSHda ajralishlar keng tarqalgan va normal jarayondir. Amerikaliklar o'zlarini juda yaxshgi ko'rishadi , shuning ychun ham uy xo'jalik ishlari bilan faol shug'ullanishmaydi. Uyda juda kam hollarda ovqat tayyorlashadi. Uy va oila ishlariga bu kabi munosabati sababli amerikaliklar ko'p vaznli xalq sifatida tilga olinadi. Amerika jamiyatidagi *oilaviy qadriyatlar* juda xilma-xil bo'lib, *yashash joyi , madaniy kelib chiqishi , dini , ijtimoiy mavqei* va hatto *siyosiy qarashlari* ko'plab omillarga xos bo'lgan bir nechta umumiy qadriyat va an'analar mavjud. Amerikaliklar uchun muhim qadriyat o'zini o'zi ta'minlash va mustaqillikka intilishdir. Bolalar erta yoshdanoq o'z muommolarini o'zlari mustaqil hal qilishga , qarorlar qabul qilishga va o'z harakatlari uchun javobgarlikni olishga o'rgatiladi. Yoshlar ko'pincha o'rta maktab yoki kollejni

tugatgandan so'ng mustaqil hayot boshlash uchun ota-onasining uyini tashlab ketishadi. Mening fikrimcha, Amerika jamiyatida *tenglik* va *hurmat* tushunchalari muhim o'rin egallaydi. Bu davlatda insonlar *irqi, jinsi, dini* yoki *ijtimoiy kelib chiqishidan* qat'i nazar, o'z fikrini erkin bildirish va jamiyatda o'z o'rnini topishga harakat qiladi. Albatta, muommolar mavjud, lekin odamlarning bir-birini hurmat qilishga intilishi va teng huquqlarga ishonishi jamiyatni rivojlantiradi. Ayniqsa qonun oldida tenglik va shaxsiy erkinlikka berilgan e'tibor Amerikani boshqa davlatlardan ajratib turadi. Bu fikrga qo'shimcha qilib, aytmoqchiman-ki, o'zaro hurmat va tenglikka asoslangan muhit har qanday jamiyatning barqaror bo'lishiga xizmat qiladi. Bolalar ta'limi eng muhim qadriyatlardan biri sanaladi. Ota-onalar farzandlarining ta'lim jarayonida faol ishtirok etishadi, ularning uy vazifalariga ko'maklashishadi, maktabda uyushtiriladigan tadbirlar va majlislarga tez-tez borib turishadi. Oilada bolalarning o'quv yutuqlaridan tashqari ularning ijtimoiy ko'nikmalari, shaxsiy qiziqishlari va sevimli mashg'ulotlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi. Angliyada oila ko'p qirrali tushuncha bo'lib, uning mazmun mohiyati asrlar davomida juda o'zgarib borgan. Bu davlatning oila a'zolari bir-birining shaxsiy hayotiga hurmat bilan qaraydi va mustaqillik muhim deb hisoblashadi. Farzandlar yoshligidan o'z fikrini erkin bildirishga va mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatiladi. Shu bilan birga, oilaviy qadriyatlar, ma'suliyat va o'zaro hurmat saqlanib qolgan. Menimcha, Angliyadagi oilalarda shaxsiy erkinlik bilan oilaviy ma'suliyat o'rtasidagi muvozanat muhim o'rin tutadi. Angliyada an'anaviy oilalar jamiyat hayotida hanuz muhim ahamiyatga ega. Bunday oilalarda ota-ona ma'suliyati, farzand tarbiyasi va o'zaro hurmat ustuvor hisoblanadi. An'anaviy oilalar ko'pincha urf-odatlar, bayramlar va oilaviy yig'ilishlar orqali o'z qadriyatlarini saqlab keladi. Fikrimcha, bu turdagi oilalar jamiyatda barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi va yosh avlodga to'g'ri tarbiya berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Inglizlar shaxsiy makonni qadrlashadi va ko'pincha, hatto yaqinlari bilan munosabatlarda ham ma'lum darajada maxfiylikni saqlashni afzal ko'rishadi. Bu har bir oila a'zosining shaxsiy vaqti va makoniga hurmat bilan qarashida namoyon bo'ladi. Inglizlar uchun uy shaxsiy qal'a sifatida qabul qilinadi.

Ular uyda vaqt o'tkazish, bog'dorchilik, uylarni bezashni va qulay muhit yaratishni yaxshi ko'rishadi. Ko'pgina ingliz oilalari oilaviy an'analarga sodiq bo'lishadi va ularni saqlab qolishga harakat qilishadi. Bunday an'analarga, masalan, yakshanba kuni tushlik qilish, Rojdestvoni ma'lum marosimlar bilan nishonlash (masalan, Rojdestvo kurka taomlari) va boshqa bayram tadbirlari kiradi. O'ziga xoslikni saqlash uchun tug'ilgan kunlar, yubiley yoki madaniy festivallar kabi madaniy festivallar kabi madaniy yoki oilaviy an'analarni nishonlash ham shular toifasiga kiradi. Ingliz oilalarida ta'lim-tarbiyada ko'pincha xulq-atvor, xushmuomalalik va odob-axloq qoidalariga katta e'tibor qaratiladi. Bolalar keksalarni hurmat qilishni, xushmuomalalikni va belgilangan me'yorlarga rioya qilishni aynan oiladan o'rganadilar. Mening nazdimda, qoidalar va odob-axloq qoidalariga amal qilish jamiyat madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Kundalik hayotda odamlar tartibga, vaqtga va atrofdagilarga hurmat bilan munosabatda bo'lishga intiladi. Navbatga rioya qilish, muloyim muomala va boshqalarning shaxsiy fikrlarini hurmat qilish ular uchun odatiy holdir. Bunday yondashuv jamiyatda tartibni saqlashga, o'zaro tushunish va ishonch muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Ta'limga e'tibor qaratish: Ko'pchilik ingliz oilalari ta'limga katta ahamiyat berishadi va farzandlariga bilim va rivojlanish uchun eng yaxshi imkoniyatlar yaratishga e'tibor qaratishadi. Bolalarni ta'lim va shaxsiy rivojlanishga undash, mehnatsevarlik va maqsadlariga erishishlariga ko'maklashishadi. Bolalar kichik yoshdan bilim olishga va mustaqil fikrlashga o'rgatiladi. Maktab va universitetlarda nafaqat fanlar, balki, muloqot, ijtimoiy ko'nikmalar va kreativlik ham rivojlantiriladi. Bu qarash yoshlarni hayotga tayyorlashga yordam beradi va ularni kelajakda muvaffaqiyatli bo'lishga rag'batlantiradi.

Avstraliya oilaviy qadriyatlari asosan erkinlik, gender tengligi, farzandlar farovonligi va ochiqlikka asoslangan. Oila tarkibi xilma-xil (nikohsiz sheriklik, bir jinsli juftliklar) bo'lib, ota-ona va farzandlar o'rtasida do'stona, teng huquqli munosabatlar ustuvor sanaladi. Shaxsiy rivojlanish, dam olish va sportga oilaviy vaqt ajratish muhim o'rin tutadi. Gender tengligi: Avstraliyada gender tengligiga katta e'tibor qaratiladi. Ayollar va erkaklar ish joyida, ta'limda va jamiyat hayotida

teng imkoniyatlarga ega bo'lishga intiladi. Ko'plab dasturlar va qonunlar ayollar huquqlarini himoya qiladi va jinsga qarab kamsitishni kamaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, jamiyatda har ikki jins vakillari bir-birining fikrini hurmat qilishga o'rgatiladi. Bu qarash Avstraliyani barqaror va adolatli jamiyatga aylantirishga xizmat qiladi. Mustaqillik: Farzandlar yoshligidan mustaqil bo'lishga o'rgatiladi va 18 yoshdan keyin ko'pincha alohida yashashga intiladi. Ochiqlik va tenglik: Oila a'zolari o'rtasida ochiq muloqot va do'stona munosabatlar mavjud. Ochiqlik odamlarning bir-biri bilan muloqot qilishda samimiy va adolatli bo'lishni ta'minlaydi. Tenglik esa insonlar orasida adolatni va bir xil imkoniyatlarni kafolatlaydi, kimningdir irqi, jinsi yoki kelib chiqishidan qat'i nazar, hamma o'zini hurmat qilingan his qiladi. Jamiyat bilan bog'liqlik: Oilalar faol ijtimoiy hayot kechiradi va jamiyatdagi tenglik qadriyatlariga amal qiladi. Avstraliya oilalari zamonaviylashgan bo'lsa-da, o'zaro qo'llab-quvvatlash va "ish-hayot balansi" (work-life balance) ularning asosiy ustuvorligi hisoblanadi. Oilaviy qadriyatlar har bir jamiyatning asosi bo'lib, ular milliy madaniyat va ijtimoiy tuzumga qarab turli shakllarda nomoyon bo'ladi. Oilaning o'rni davlatlar va xalqlarning tarixiy, diniy va madaniy xususiyatlariga qarab farqlansa-da, umumiy maqsadlar bir: avlodlar o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash, farzandlarni tarbiyalash va oila birdamligini avaylab-asrash. Ayniqsa, zamonaviy globallashtirish sharoitida oilaviy qadriyatlarning ahamiyati yanada oshmoqda, chunki ular inson o'zligini saqlab qolishi hamda jamiyatning ijtimoiy muvozanatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Kanada dunyodagi eng ko'p millatli va madaniy jihatdan rang-barang davlatlardan biri hisoblanadi. Shu sababli Kanadadagi oilaviy an'analar yagona qolipga ega emas, balki turli millatlar, madaniyatlar va qadriyatlarning uyg'unlashuvi natijasida shakllangan. Biroq shunga qaramay, oilalarga xos bo'lgan umumiy jihatlari mavjud. Kanadada ko'pincha kichik (yadro) oila, ota-ona va farzandlardan iborat oila keng tarqalgan. Erkak va ayol o'rtasida tenglik muhim hisoblanadi: uy ishlari va farzand tarbiyasi birgalikda olib boriladi. Bolalarning mustaqilligi erta yoshdan qo'llab-quvvatlanadi.

Rojdestvo (Christmas) va *Thanksgiving* eng muhim oilaviy bayramlar bo'lib, oila a'zolari bir joyga to'planadi. Bayramlarda birgalikda ovqat tayyorlash, sovg'a berish va suhbatlashish an'anaga aylangan. Tug'ilgan kunlar ham odatda oila davrasida nishonlanadi. Kanadadagi oilaviy an'analarga madaniy xilma-xillik kuchli ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatda *ingliz* va *fransuz* madaniyati bilan bir qatorda mahalliy aholi- *Indigenous* xalqlarning qadriyatlari ham muhim o'rin tutadi. Shuningdek, muhojir oilalar o'z milliy urf-odatlarini saqlab qolgan holda, kundalik jamiyatga moslashib yashaydi. Natijada, Kanadadagi oilaviy hayot bag'rikenglik, hurmat va o'zaro tushunishga asoslanadi.

Xulosa: Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda oilaviy qadriyatlar jamiyat hayotida muhim o'rin egallaydi. Bu davlatlarda oila a'zolari bir-birining shaxsiy tanlovlariga hurmat bilan qarashi, mustaqillik va ma'suliyatni erta yoshdan o'rgatishi bilan ajralib turadi. Menimcha, bunday yondashuv insonning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va uni hayotga tayyorlaydi. Shu bilan birga, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi ochiq muloqot oiladagi munosabatlarni yanada mustahkamlaydi. Umuman olganda, bu qadriyatlar zamonaviy jamiyat talablariga mos bo'lib, oilaning barqaror va sog'lom bo'lishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some universals in language usage*. Cambridge: Cambridge University Press.
2. Fox, K. (2004). *Watching the English: The hidden rules of English behaviour*. London: Hodder & Stoughton.
3. Galsworthy, J. (1906). *The Forsyte Saga*. London: William Heinemann.
4. Kramsch, C. (1998). *Language and culture*. Oxford: Oxford University Press.
5. Trudgill, P. (2000). *Sociolinguistics: An introduction to language and society*. London: Penguin Books.